

uchinchidan, litsenziya va ruxsat olish tartib-qoidalarining murakabligi.

Yuqorida keltirilgan tahlillarimizdan kelib chiqib, investitsiya muhitini yaxshilash uchun xususiy va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalg qilish bo'yicha institutsional asosni shakkantirish lozim deb hisoblaymiz. Xorijiy investitsiyalarni faol-lashtirish uchun tadbirkorlik faoliyatini erkinlashtirish imkonini oshirish lozim. Biznesning rivojlanshiga to'sqinlik qiladigan to'siqlarni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha astoydil kurashish kerak. Natijada investitsion jozibadorlikni oshirish va bar-qaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash mumkin. Davlat-xususiy sheriklik va loyihalarni moliyalashtirish vo-

sitalarini rivojlantirish orqali esa investitsion faoliyatni rag'batlantirish, shaffoflikni maksimal darajada ta'minlash va xorijiy investorlarning murojaatlari va so'rovlari bilan ishlashni tashkil etish lozim deb hisoblaymiz.

Xulosa o'rnidagi ta'kidlash lozimki, rivojlangan mamlakatlarning tajribasi, mamlakatning investitsion muhitini yaxshilash borasida qabul qilgan qonunlari, qarorlarini o'rganish, kerakli jihatlarini O'zbekiston sharoitiga tadbiq etish muhim masalalardan hisoblanadi. Ushbu taklif va tavsiyalarning amaliyotga tadbiq etilishi respublikamiz iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalg qilishni kengaytirish imkonini beradi.

### *Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:*

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 28.01.2022 ўйлабди ПФ-60-сон
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrdagi Oliy majlisga murojaatnomasi
3. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining 2021-2023-yillarda mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4937 son qarori
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-avgustdag'i PF-6042-son va "Hududlarning sanoat salohiyatini oshirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi farmoni
5. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 14-dekabrdagi "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'RQ №598 son qonuni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 2022 — 2026-yillarda mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida 28.01.2022 yildagi PF-60-son
7. "Science and Education" Scientific Journal Volume 1 Issue 4 July 2020
8. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasining rasmiy sayti
9. Асаул А.Н. Формирование инвестиционного климата (опыт Петербургского региона). // «Экономика Украины». – Киев, 2002, № 4.
10. Иванов М.Ю. Понятие инвестиционного климата и его влияние на эффективность инвестиционного воздействия партнеров. – М.: Российская академия государственной службы при Президенте РФ, 1996
11. Смаглюкова Т.М. Общие подходы к формированию региональной инвестиционной политики. // Современные проблемы науки. - 2014. № 1.
12. Vahabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Muminov N.G. "Xorijiy investitsiyalar" o'quv qo'llanma – T.: Moliya, 2010. – 153 b.
13. G'ozibekov D.G., Nosirov E.I. O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar investitsiyalarни жалб қилиш. Рисола. – Т.: Иқтисод-мания, 2007. – 92 б.
14. Вахабов А.В., Таджисбаева Д.А., Хажибакиев Ш.Х. Жаҳон иқтисодиёти ва халқаро иқтисодий муносабатлар: дарслик. – Т.: Baktria press, 2015. – 584 б.
15. Salimov B., Xotamov I. Investitsiyaviy faollik: tahlil va imkoniyatlar. TDIUkoll.monogr. – T.: Fan va texnologiya, 2019, 93-b.
16. Mustafakulov Sh.I. Investitsion muhit jozibadorligi. – T.: Baktria press, 2017 – 18-b.
17. Исаев Ф. Ресурс солиқлари таҳлилини ташкил этиши методикаси: [https://doi.org/10.55439/ECED/vol23\\_iss5/a30](https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss5/a30) // Экономика и образование. – 2022. – Т. 23. – №. 5. – С. 171-176.
18. Isayev F. Мол-мulkни солиққа тортишини тақомиллаштириш. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2021. – №. 6. – С. 326-333.
19. Isaev F.I. Tax Accounting: Theory and Practice // International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. – 2022. – Т. 9. – №. 12. – С. 30-38.
20. Ikromovich, Isayev Fakhreddin. "Concept of economic analysis and its structural components." International Journal of Marketing and Technology 7.12 (2017): 1-13.
21. Ikromovich, Isayev Fakhreddin. "Analysis of the profit tax and its improvement." International Journal of Research in Social Sciences 7.12 (2017): 74-85.
22. <https://review.uz/oz/post/v-2022-godu-planiruetysa-privlech-95-mld-pryamx-inostrannx-investiciy>
23. <https://ifmr.uz/infographics#mob-menu2>



### **MAMLAKAT IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI YAXSHILASH MASALALARI**

**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li -**  
Toshkent moliya instituti Baholash ishi va  
investitsiyalar kafedrasi o'qituvchisi

**doi** [https://doi.org/10.55439/ECED/vol24\\_iss1/a10](https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss1/a10)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada investitsion jozibadorlikning mazmun-mohiyati, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalg qilishda investitsion jozibadorlikni oshirish borasidagi iqtisodchi olimlarning fikr-mulohazalari o'rganilgan. Shuningdek, mamlakatimiz investitsion jozibadorligiga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilingan bo'lib, mamlakatning ishbilarmonlik muhiti va investitsion risklar darajasini baholovchi, xalqaro darajada tan olingan ko'rsatkichlar haqida to'xtalib o'tilgan. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalg qilishda investitsion jozibadorlikni oshirish bo'yicha ilmiy xulosa va tavsiyalarni shakkantirilgan.

**Kalit so'zlar:** investitsiya, investitsiya muhiti, investitsion jozibadorlik, Beri – (Biznes muhiti xavf-xatarlari haqida ma'lumot) indeksi, indikator, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya, retsipient, donor, biznes, segment, progressiya, investitsiya salohiyati.

## ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ В РАЗВИТИЕ ЭКОНОМИКИ СТРАНЫ

**Очилов Бобур Бахтиярович -**

*Ташкентский финансовый институт Преподаватель  
кафедры «Оценочная работа и инвестиции» –*

**Аннотация.** В данной статье рассматривается сущность инвестиционной привлекательности, мнения экономистов о повышении инвестиционной привлекательности при привлечении прямых иностранных инвестиций. Также проанализированы факторы, влияющие на инвестиционную привлекательность нашей страны, и обсуждены международно-признанные показатели, оценивающие бизнес-среду страны и уровень инвестиционных рисков. Сформулированы научные выводы и рекомендации по повышению инвестиционной привлекательности при привлечении прямых иностранных инвестиций.

**Ключевые слова:** инвестиции, инвестиционный климат, инвестиционная привлекательность, Бери – (Информация о рисках деловой среды) индекс, показатель, прямые иностранные инвестиции, реципиент, донор, бизнес, сегмент, развитие, инвестиционный потенциал.

### ISSUES OF IMPROVING INVESTMENT ATTRACTIVENESS IN THE DEVELOPMENT OF THE COUNTRY'S ECONOMY

**Bobur Ochilov Baxtiyor o'g'li -**

*Teacher of the Department of "Valuation and  
Investments", Tashkent Institute of Finance*

**Annotation.** This article examines the essence of investment attractiveness, the opinions of economists about increasing investment attractiveness in attracting foreign direct investments. Also, the factors influencing the investment attractiveness of our country were analyzed, and internationally recognized indicators assessing the country's business environment and the level of investment risks were discussed. Scientific conclusions and recommendations on increasing investment attractiveness in attracting foreign direct investments have been formulated.

**Keywords:** investment, investment climate, investment attractiveness, Beri – (Business Environment Risk Intelligence) index, indicator, foreign direct investment, recipient, donor, business, segment, progression, investment potential.

**Kirish.** Qaysi bir rivojlangan mamlakat iqtisodiyotiga razm solmaylik, avvalo, investitsiya muhitining sog'lomligi, uning jozibadorligi natijasida, investitsiyalar oqimining shiddat bilan kirib kelishi orqali mamlakat iqtisodiyoti bilan bog'liq tendensiylarning progressiv natijalarga erishayotganini guvohi bo'lamiz.

Bugungi kunda jahonda kechayotgan globallashuv va texnologik qurollanish bosqichida, iqtisodiy rivojlanish kombinatsiyasi talqinida investitsiya oqimining o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Davlatlar retsipient pozitsiyasi orqali xorijiy investitsiyalarni jalb etish borasida o'rta va yirik biznesni tashkil etish va uni samarali yuritish uchun mamlakatdagi yaratilgan investitsiya salohiyati, tashkil etilgan zamonaviy infratuzilma, investitsion muhitini sog'lomlashtirish bo'yicha olib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosati, xususan, xorijiy kompaniyalarning hech qanday moneliksiz kirib kelishi, xususiy mulk daxlsizligi, biznes subyekti sifatida o'z kapitalini yo'naltirish uchun mamlakatda maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalarining tashkil etilganligi, soliq va boshqa moliyaviy imtiyozlarning mavjudligiga e'tibor qaratishadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida "Iqtisodiy o'sishga, avvalo, raqobatdosh sanoat zanjirlarini yaratish hamda bunday loyihalarga investitsiyalarni ko'paytirish orqali erishiladi [1]" – deb ta'kidlaganlar.

Hozirgi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining barcha sohalarida keng ko'lamli o'zgarishlar va tarkibiy islohotlar olib borilmoqda. Bunday islohotlarning olib borilishi bevosita mamlakatdagi investitsion jarayon, davlatning investitsion siyosati, uning ustuvor yo'nalishlari va mamlakatdagi korxonalar investitsion faolligiga bog'liq hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. "Investitsion jozibadorlik" tushunchasi borasida, ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ta'riflar berilgan bo'lib, ulardan taniqli iqtisodchilar M.Glagoleva va S.Beloguralarning fikricha, "Mamlakat yoki mintaqaning investitsion jozibadorligi hamda moliyaviy qo'yilmalar jozibadorligining ma'lum darajasini belgilovchi omillar – siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy hamda davlatni huquqiy sharoitlari tavsifini birlgilikda umumlashgan holatidir [2]". Mazkur fikrda, investitsion jarayonlarni amalga oshirish, investitsion jozibadorligining umumiy tushunchasi izohlangan bo'lib, unda investitsion muhitini belgilaydigan turli omillar mayjudligi ifodalangani.

Taniqli iqtisodchi N.Murashkoning ta'kidshicha investitsion muhitni investitsion jozibadorlik va investitsion faoliksiz tasavvur etib bo'lmaydi, bu tushunchalar o'zaro bog'liqligidagi ishlaydi [3].

A.Rolikning yondashuvida esa investitsion jozibadorlik bu potensial investorga mavjud mablag'larni investitsiya qilish maqsadida ma'lum bir investitsiya ob'yekti boshqalariga qaraganda

qanchalik jozibador ekanligini baholashga imkon beradigan xususiyatlar to'plami hisoblanadi [4].

Iqtisodchi A.Asualning fikricha, investitsion jozibadorlik – bu investitsiya jarayonlari kechadigan muhitdir. U mintaqada investitsiya faoliyati sharoitlarini va investitsiya riski darajasini belgilaydigan siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy va boshqa omillar ta'sirida shakllanadi [5].

Elvira Sojli, Wing Wah Thamlarning qarashlarida investitsiya muhiti qanchalik qulay bo'lsa, investorning tadbirkorlik riski shunchalik past darajada bo'ladi va bu investorlarning kirib kelishini faollashtiradi. Aksincha, investitsiya muhiti noqlay bo'lsa, risk darjasasi yuqori bo'ladi. Bu esa, investitsiya qabul qiluvchi tomon sarf-xarajatlarining o'sishiga olib keladi. Investitsiya jozibadorligining holati faqat investor uchun emas, balki investitsiya qabul qiluvchi uchun ham muhimdir [6].

Takhumova Oksananing ilmiy tadqiqot ishlarida investitsiya muhitini asossiy uch segmentga ajratadi. Korxonalarining investitsion jozibadorligi bevosita mamlakatdagi investitsiya siyosatiga va yaratilgan investitsion muhitiga bog'liq. Xususan, investitsiya muhiti uchta elementdan iborat tizim sifatida ko'rib chiqiladi: investitsiya salohiyati, investitsiya riski va qonunchilik shartlaridir [7].

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda investitsiya muhiti – bozor konyunkturasi ta'siriga, investitsiyalarни moliyalashtirish manbalariga va hajmiga bog'liq jarayon hisoblanadi [8].

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarini jalgilishning asosiy omillari bozorlar va resurslarga kirishdir. Chet el kapitalining faqat ayrim mintaqalarda va ayrim tarmoqlarda kontsentratsiyasi boshqa mintaqalar iqtisodiyotining rivojlanishini cheklaydi, birinchi navbatda sanoati rivojlanmagan mintaqalar iqtisodiyotiga ta'sir qiladi. Bu esa o'z navbatida, mintaqaviy investitsion jozibadorlikning asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi [9].

Xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishiga sabab bo'ladi, chunki xorijiy investitsiyalarini jalgilish bo'yicha intensiv firmalar tashqi fondlarni jalgilish uchun mahalliy aksiyalar bozorida o'z aksiyalarini listingdan o'tkazadi. Jamg'arma oqimi va operatsiyalarning ko'payishi moliyaviy vositachilikka bo'lgan talabni oshiradi va natijada qimmatli qog'ozlar bozori rivojlanadi. Investitsion jozibadorlikning muhim drayverlaridan biri ham aynan fond bozori segmentlari hisoblanadi [10].

Bizningcha, investitsion jozibadorlikni ta'minlash va investitsiya salohiyatidan oqilona foydalanishda investitsion jozibadorlikni oshirishga qaratilgan mintaqaning imkoniyatlarini inobatga olish, ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmani innovatsion yan-gilashga yo'naltirilgan investitsiya faoliyatini jadalashtirish, mintaqaviy tadqiqotlarning moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya darajasini oshirish

va innovatsion investitsiyalarini jalg etishga qaratilgan [11].

Mamlakatdagi kompaniyalar o'z dividend siyosatida dividend va reinvestitsiya o'rtasidagi me'yoriy nisbatni aniqlashi, minoritar aksiyadorlar huquqlarini himoya qilishi, aksiyalarning bozordagi narxlarining o'sishiga erishishi, biznes faoliyatini kengaytirishi kabilar kompaniyalarning investitsion jozibadorligini oshirishga imkon beradi, bu esa mamlakatning investitsion jozibadorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [12].


Respublikamizda aksiyadorlik jamiyatları qaysi sohada faoliyat ko'rsatishidan qat'iy nazar, qo'shimcha moliyaviy resurslarini joylashtirish, jumladan xorijiy investitsiyalarini jalg qilish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Aynan aksiyadorlik jamiyatlariga investitsiyalarini jalg qilishning eng zamonaviy usullaridan biri IPO mexanizmini qo'llashdir [13].

Mamlakatdagi innovatsiya va investitsiya jarayonlariga ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy, siyosiy hamda me'yoriy-huquqiy, ijtimoiy va boshqa shart-sharoitlarning qulayligi mamlakat investitsion jozibadorlik darajasini belgilab beruvchi asosiy omillardan hisoblanadi [14].

Tadqiqot metodikasi. Ushbu maqolada O'zbekiston va xorijiy mamlakatlar iqtisodchi olimlarning mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida investitsion jozibadorlikning o'rni va ahamiyatini ifodalovchi manbalarinining tahliliga bag'ishlangan ilmiy asarlari va maqolalari o'rganilgan. Tadqiqot metodologiyasi sifatida grafika usulda guruhlashtirish, iqtisodiy-statistik tahlil hamda sintezlash, mantiqiy fikrlash kabi iqtisodiy tadqiqot usullaridan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Investitsiya jozibadorligi mamlakat investitsiya salohiyati va investitsiya riski darajasining bir vaqtida ta'sir etishi orqali aniqlanadi. Bu kabi ko'rsatgichlar esa investitsiyalarning maqsadga muvofiqligi hamda jozibadorligini anqliashga yordam beradi. Investitsiya riski darajasi investitsiya muhitiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir.

Investitsiya muhiti makroiqtisodiyot darajasida, ya'ni investor va aniq davlat organlari, xo'jalik subyektlari o'rtasidagi munosabatlarda o'z aksini topadi. Investitsiya muhiti har qanday aniq vaqt uchun obyektiv holat bo'lib, capital qo'yish uchun mavjud sharoitlarning majmuasini o'zida qamrab oladi. Lekin investitsiya muhiti davlat organlarining boshqarish faoliyati ta'sirida shakllanadi. Shuning uchun davlatning investitsiya siyosati eng omillardandir. Shu ma'noda har bir davlat kapital import qilishda o'zining aniq kapital qabul qilish tizimiga ega bo'adi. Investitsiya muhiti darjasasi qanchalik yomon bo'lsa, investor o'z riskini shunchalik yuqori belgilaydi. Investitsiya muhitining makroiqtisodiy darajada quyidagi rasm ko'rinishida tasvirlash mumkin.



**1-rasm. Mamlakat investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi omillar [15]**

Yuqoridaq grafik shaklda keltirilgan rasmda ko'rishimiz mumkinki, O'zbekistonda investitsion jozibadorlikni belgilovchi kengaytirilgan uchta eng yirik segmentlar mavjud bo'lib, ular siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy tarmoqlar tarkibidagi ta'sir etish kuchiga ega turli-xil omillar sanaladi. Bu omillarning barqarorligi esa o'z-o'zidan investitsiyalarni donor pozitsiyasida kirib kelishi uchun munosabatlar negizi vazifasini o'tabgina qolmay, investor o'z kapitalini yo'naltirish borasida mamlakatning hудди hamda soha-tarmoqlariga bo'lgan potensiali ortib boradi. Shu qatorda aksincha, investitsiya muhiti darajasi qanchalik yomon bo'lsa, investor o'z riskini shunchalik yuqori belgilaydi.

O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb etishni faollashtirishga kata e'tibor qaratilib, investorlarga ko'maklashish va kafolatlar berish uchun ularga investitsiya, soliq tizimida va bojxona to'loverlari sohalarida ma'lum imtiyozlar, sharoitlar va kafolatlar tizimi yaratildi. Shuningdek, xorijiy investitsiyalar uchun hudud jozibasini baholashda ko'pchilik xorijiy investorlar ham «BERI» (business environment risk index) indeksidan foydalanadilar. Bu indeks asosiy 15 ko'rsatgichda aniqlanadi, 0 dan 4 ballgacha. Indeksning optimal jihatlari shundaki, u bilan hududlardagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy strukturani qay tarzda ishlayotganini bilish mumkin bo'ladi. Quyidagi 2-rasmda baholash mezonlari, ularning investitsiya qarorlarini qabul qilish bo'yicha ahamiyatidan kelib chiqib aks ettirilgan.

Yuqorida keltirilgan infografik shakldagi rasmda «BERI» (Biznes muhiti xavf-xatarlari haqida


ma'lumot) indeksi mamlakat investitsiya muhitini turli hajmga ega bo'lgan 15 ta baholash mezonlariga asoslangani berilgan bo'lib, har bir mezonga 0 dan (to'g'ri kelmaydi) 4 gacha (o'ta qulay) baho beriladi. To'plangan ballarning yuqori bo'lishi barqaror mamlakatni anglatadi. Mamlakat to'plagan ball qanchalik past bo'lsa, investitsiyalashdan olinishi mo'ljallangan foyda yuqori bo'lishi zarur, aks holda investitsiyalash samara keltirmaydi. Shu o'rinda, «BERI» indeksiga kirgan ko'rsatgichlar orasida siyosiy barqarorlik (0,12 foiz) eng kata ahamiyatga ega hisoblanadi.

Mamlakatimizda investitsiya masalasi so'nggi 5 yilda o'z aktualligini yo'qotmaganini hisobga olgan holda, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarni tahlil qilish natijasida mamlakatga investitsiya kirib kelishida yildan-yilga o'sish sur'atlar qayd etilganini ko'rishimiz mumkin (2-jadval).

Yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotlarida shuni ko'rish mumkinki, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning o'sish sur'ati foiz ko'rinishida berilgan. 2020-2021 yillarga nisbatan 2022 yilda o'sish sur'atlari 105,0 foiz deya qayd etilgan, bu esa o'z navbatida, O'zbekistonda asosiy kapitalga investitsiyalar o'sish tendensiyasiga ega bo'lib bora-yotgani hamda investitsiya muhitining qulayligidan dalolat beradi.

Bunday investitsiya holatida o'sish sur'atlari ni yanada oshib borishi investorlar uchun qulay muhit yaratilganligi, investitsiya dinamikasi va tarkibiga ta'sir ko'rsatadigan jami iqtisodiy, huquqiy, siyosiy va ijtimoiy sharoitlar bilan belgilanadi.

## INNOVATSIYA VA INVESTITSIYA



**2-rasm. Xorijiy investitsiyalar uchun hudud jozibadorligini baholashning «BERI» indeksi [16]**

Ma'lumki, mamlakatimiz iqtisodiyotini barqarorlashtirishda to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalarning o'rni beqiyos hisoblanadi. Shu o'rinda,

O'zbekistonda o'zlashtirilayotgan xorijiy investitsiya hajmidagi ulushi eng yuqori bo'lgan davlatlarni ko'rishimiz mumkin (3-rasm).


### 2-jadval

**Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hududlar kesimida [17]**

Hududlar	2020	2021	2022	<i>o'sish sur'ati %</i>
O'zbekiston Respublikasi	95,6	102,9	105,0	
Qoraqalpog'iston Respublikasi	69,9	105,1	118,9	
Andijon	110,6	106,0	114,6	
Buxoro	104,7	147,4	98,5	
Jizzax	147,4	72,4	106,9	
Qashqadaryo	76,5	77,8	96,0	
Navoiy	77,1	86,0	105,9	
Namangan	88,0	100,5	102,0	
Samarqand	128,8	98,7	122,5	
Surxondaryo	77,4	109,7	100,6	
Sirdaryo	111,2	107,7	127,6	
Toshkent	92,2	120,3	102,4	
Farg'on'a	113,5	105,7	112,4	
Xorazm	92,7	139,3	108,7	
Toshkent sh.	108,6	105,0	97,6	

O'zbekistonda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 190 trln. so'mni tashkil etgan bo'lib. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, shundan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan jami xorijiy investitsiya va kreditlar 72 trln. so'm miqdorida qayd etildi [18]. Yuqoridagi keltirilgan rasm-dagi raqamlar shuni isbotlaydiki, o'zlashtirilgan jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmida eng yuqori ulushga ega bo'lgan investor davlatlar orasida Rossiya 21 foiz bilan birinchi o'rinda qayd etildi.

Iqtisodiyot va ta'lim / 2023-yil 1-som



**3-rasm. O'zbekistonda o'zlashtirilayotgan xorijiy investitsiyalar hajmida xorij davlatlari ulushi (foizda) [18]**

Ushbu ko'rsatkichni qolgan davlatlar kesimida ham ko'rishimiz mumkin, jumladan, Xitoy 19,9 foiz, Turkiya 10,4 foiz, Germaniya 6,5 foiz, Saudiya Arabistoni 4,6 foiz, Italiya 3 foiz, Kipr 2,7 foiz, Shveysariya 2,6 foiz, Buyuk Britaniya 2,1 foiz, AQSh (Amerika Qo'shma Shtatlari) 1,8 foiz ulushlariga to'g'ri kelmoqda.

**Xulosa va takliflar.** So'nggi bir necha yil ichida O'zbekiston jadal iqtisodiy o'zgarishlarni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda biznes va investitsiyalar uchun turli xil to'siqlarini bartaraf etishda ochiqlik, yangilanish va qat'iyatlilik ramzlaridan biri sifatida tobora ko'proq namoyon bo'lmoqda. Investitsiya muhitining holati faqat investor uchun emas, balki investitsiya qabul qiluvchi uchun ham muhim jarayondir.

Yuqorida tahlil va muhokamalardan kelib chiqib quyidagi taklif va tavsiyalarni shakllantirishga muvofaq bo'ldik:

1. O'zbekistonda investitsion muhitni yaxshilash bo'yicha esa uning jahon arenasidagi imidjini

mustahkamlash;

2. Investitsiyalarni jalb qilishda qulay ishbilarmonlik muhiti yaratish va axborotlar ochiqligini ta'minlash;

3. Investorlar huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish, mahalliy kompaniyalar va xorijiy investorlar o'rtasida ishlab chiqarish va sotish munosabatlarini rivojlantirishni hamda savdo logistikasini yaxshilash;

4. Ishbilarmalik muhiti va qulay investitsion muhitni shakllantirishda davlat organlari rolini oshirish kabi ishlar amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Yuqorida keltirilgan ilmiy taklif va tavsiyalaridan kelib chiqqan holda, ularni chuqur o'rganib, tahlil qilish va asoslab amaliyotga tadbiq etish yaqin kelajakda o'z natijasini beradi. Shiningdek, mamlakatda qulay investitsiya muhitini yaratish orqali davlatning investitsiya jozibadorligini yanada oshirishga va ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

#### **Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga yo'llagan Murojaatnomasi (2020-yil 29-dekabr).
2. Глаголев П., Белогур С. (1997) Инвестиционные просторы России // Российский инвестиционный вестник. № 3 с 15.
3. Мурашко Н.Н. Оценки инвестиционной привлекательности регионов Республики Беларусь и возможности ее прогнозирования. МИДО БНТУ 2016. Стр.116. // Мурашко Н.Н. (2012).
4. Yurii A.Rolik. A Complex Approach to Evaluating the Innovation Strategy of a Company to Determine its Investment Attractiveness.// Procedia – Social and Behavioral Sciences, Volume 99, 6 November 2013, pages 562-571; <https://www.sciencedirect.com>
5. Асайл А.Н. Формирование инвестиционного климата (опыт Петербургского региона). // «Экономика Украины»: Киев, № 4. (2013).
6. Elvira Sojli, Wing Wah Tham. "The Impact of Foreign Government Investments: Sovereign Wealth Fund Investments in the United States" In Institutional Investors in Global Capital Markets. Published online: 8 March 2015; 207-243. [www.scopus.com](http://www.scopus.com)
7. Takhumova Oksana V., Kasatkina Elena V., Maslihova Elena A., Alexey V.Yumashev, Maria V.Yumasheva. The main directions of increasing the investment attractiveness of the Russian regions in the conditions of institutional transformations. // Revista ESPACIOS, Vol. 39 (Number 37) 2018. – P.12;
8. Svitlana Gutkevych. Investment Attractiveness of Industries: Features and Trends. // Baltic Journal of Economic Studies, vol. 5, № 3, 2019. P. 9.
9. G.M.Galeeva and E.N.Kadeeva. Problems of attracting foreign direct investment into the regional economy. // Journal of Physics: Conference Series, 1730(2021) 012118, 2020. – P. 8; <https://www.scopus.com>

## INNOVATSIYA VA INVESTITSIYA

10. Mollah Aminul Islam, Haiyun Liu, Muhammad Asif Khan, Md Tariqul Islam, Md Reza Sultanuzzaman. Does foreign direct investment deepen the financial system in Southeast Asian economies? // Journal of Multinational Financial Management, 12 February 2021. – P.13; <https://www.sciencedirect.com>
11. Nodir Jumaev. "Ways to attract investment with assessment of investment potential of the regions" International Journal of Economics, Commerce and Management United Kingdom Vol. VII, Issue 2, February 2019 Licensed under Creative Common Page 664, ISSN 2348 0386 <https://www.researchgate.net/publication/331231655>
12. S.Elmirzayev. Rivojlangan mamlakatlarda dividend siyosati tahlili va Dividend Aristokratlari. // "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy-elektron jurnali, №2, 2020. – B.11; <https://uzjournals.edu.uz/interfinance>
13. Shomirov Aziz. "The role of ipo mechanisms in attracting investments to joint stock companies: necessity and prospects", International Finance and Accounting: Vol. 2021: Iss. 1, Article 19.
14. Butaev J. Activities of large issues in the economy of Uzbekistan: Analysis and results //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 6. – С. 757-766.
15. Ergasheva Sh., Uzoqov A. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish – Т.: Iqtisod-Moliya, 2008. 37-b.
16. Nasirov E.I., Asamxodjayeva Sh.Sh. Investitsiya loyiylarini moliyalashtirish. Darslik. – Т.: Iqtisod-moliya, 2020. 80-81 betlarda aks etgan ma'lumotlar orqali muallif tomonidan erkin tayyorlandi.
17. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi – [www.stat.uz](http://www.stat.uz)
18. O'zbekiston Respublikasi Qimmatli qog'ozlar Markaziy Depozitariysining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi – [www.deponet.uz](http://www.deponet.uz)



### **ЭРКИН ИҚТИСОДИЙ ЗОНАЛАРНИНГ ТАШКИЛ ЭТИЛИШИ, ХУСУСИЯТЛАРИ ВА ИНВЕСТИЦИЯ МУҲИТИНИ ЯХШИЛАШДАГИ АҲАМИЯТИ**



[https://doi.org/10.55439/ECED/vol24\\_iss1/a11](https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss1/a11)

**Матекеев Абил Аманиязович -  
Қорақалпоқ давлат университети  
мустақил изланувчиси**

**Аннотация.** Мақолада эркин иқтисодий зоналарнинг ташкил этилиши, хусусиятлари ва инвестиция мұхитини яхшилашдаги аҳамияти тадқиқ этилган бўлиб, унинг ўзига хос жиҳатлари ўрганилган. Эркин иқтисодий зоналарнинг инвестиция мұхитини яхшилаш бўйича таклифлар ишлаб чиқилган.

**Калим ғўзлар:** қулай инвестициявий мұхит, инвестиция иқлими, иқтисодиёт, инвестицион мұхит жозабадорлиги, инвестор, халқаро молия институтлари, инвестиция, хизматлар соҳаси, драйвер, ўсиш нуқтаси, чет эл инвестициялари.

### **ОРГАНИЗАЦИЯ СВОБОДНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОН, ХАРАКТЕРИСТИКА И ЗНАЧЕНИЕ В УЛУЧШЕНИИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ СРЕДЫ**

**Матекеев Абил Аманиязович -  
независимый соискатель Каракалпакского  
государственного университета**

**Аннотация.** В статье рассматривается организация, особенности и значение свободных экономических зон в улучшении инвестиционной среды, изучаются ее специфические аспекты. Разработаны предложения по улучшению инвестиционного климата свободных экономических зон.

**Ключевые слова:** благоприятная инвестиционная среда, инвестиционный климат, экономика, привлекательность инвестиционной среды, инвестор, международные финансовые институты, инвестиции, сфера услуг, драйвер, точка роста, иностранные инвестиции.

### **THE ORGANIZATION OF FREE ECONOMIC ZONES, CHARACTERISTICS AND IMPORTANCE IN IMPROVING THE INVESTMENT ENVIRONMENT**

**Matekeev Abil Amaniyazovich -  
Independent student of Karakalpak State University**

**Abstract.** The article examines the organization, characteristics and importance of free economic zones in improving the investment environment, and its specific aspects are studied. Proposals for improving the investment environment of free economic zones have been developed.

**Keywords:** favorable investment environment, investment climate, economy, attractiveness of investment environment, investor, international financial institutions, investment, service sector, driver, growth point, foreign investment.